

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL OF  
«SCIENTIFIC PROGRESS»

ISSN: 2181-1601

# The 21<sup>st</sup> Century Skills for Professional

Proceedings of the 12<sup>th</sup> International  
Scientific-Practical Distance  
Conference

2021, DECEMBER 28

[www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)

UZBEKISTAN



SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL OF  
«SCIENTIFIC PROGRESS»  
ISSN: 2181-1601

# THE 21<sup>st</sup> CENTURY SKILLS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

PROCEEDINGS OF THE 12<sup>th</sup> INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC-PRACTICAL DISTANCE CONFERENCE



[www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)

TASHKENT, UZBEKISTAN  
2021, DECEMBER 28

## SHAXSIY RIVOJLANISHGA OID ASARLAR VA ULARNING TARJIMASI XUSUSIDA

**Fayziyeva Aziza Anvarovna**

Buxoro davlat univertiteti

**Annotatsiya:** Mazkur tezis butun dunyoda fenomenal tarzda ommalashayotgan shaxsiy rivojlanishga oid asarlarning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tarixi, ularning tarjimai bilan bog'liq masalalarga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** self-help, self-improvement, shaxsiy rivojlanish, Amerika adabiyoti, tarjima, tarjimashunoslik, tarjima strategiyalari, pragmatik strategiyalar

Shaxsiy rivojlanish (Self-help\self-improvement)ga oid adabiyotlar bugungi kunda butun dunyoda ommalashib bormoqda. Ular tijoriy jihatdan muvaffaqiyatli bo'lib, ushbu adabiyotlardan keladigan daromad doimiy ravishda o'sishda davom etmoqda. Bunday turdagi kitoblar asosan o'quvchilarga shaxsiy muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalar berish maqsadida yoziladi. Bu yo'nalishdagi kitoblarning ingliz tilidagi nomlanishi Semuel Smaylz tomonidan 1859-yilda eng ko'p sotilgan "Self-Help" ("O'z-o'ziga yordam") kitobi nomiga borib taqaladi, lekin bugungi kunga kelib "Self-help" atamasi o'rniga "self-improvement", ya'ni so'zma-so'z tarjima qilganda "o'z-o'zini rivojlantirish" yoki "shaxsiy rivojlanish" atamasi ostida tasniflanadi. Shaxsiy rivojlanishga yordam beradigan kitoblar XX asr oxiriga kelib postmodern jamiyatda madaniy hodisaga aylandi.

"Self-improvement" atamasiga *Oxford languages* lug'atida quyidagi ta'rif berilgan: "o'zini rivojlantirish\takomillashtirish bu insonning bilimini, mavqeini yoki xarakterini o'z harakatlari bilan yaxshilash" bo'lib, qisqacha qilib aytganda shu janrga oid kitoblarni shaxsiy o'sishga yordam beradigan kitoblar deb ham atash mumkin.

Uilson va Kesh (2000)ning tadqiqotlariga ko'ra, millionlab amerikaliklar shaxsiy va o'zgaralar bilan bo'ladigan munosabatlardagi muammolarni hal qilishda shaxsiy rivojlanish kitoblarning psixologiyaga oid turidan maslahat manbai sifatida foydalanishadi. Dolbi o'zining "Self-Help Books: Why Americans Keep Reading them" (Shaxsiy rivoj kitoblar: Nega amerikaliklar bu kitoblarni doimiy o'qishadi") nomli kitobida (2005) ko'plab amerikaliklar hayotiy bilimlarini oshirish va to'laqonli baxtli hayot kechirish uchun manba sifatida shaxsni rivojlantiruvchi kitoblarni o'qishlarini aytib o'tadi. Ushbu janrdagi kitoblar nafaqat AQSHda, balki G'arbiy Yevropa, Avstraliya, Afrika va Osiyo mintaqasida ham fenomenal tarzda ommalashdi. Staynning fikricha (1997) odamlar doimo shaxsiy muammolarni hal qilish yoki aqliy, jismoniy, ijtimoiy va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llarini izlaydilar, natijada shaxsiy rivojlanishga oid kitoblarga doimiy talab paydo bo'ladi.

Bunday kitoblar autentik ilmiy-ommabop turga mansub bo'lib, mualliflar orasida yuqori malakali professionallar, shu bilan birga havaskor ijodkorlar ham uchraydi. Asarlardagi asosiy g'oya – kishining o'z xatti-harakati, ijtimoiy munosabatlari va mehnat mahsuldorligi ustidan o'z nazoratni kuchaytirish orqali hayotning barcha sohasida muvaffaqiyatga erishish. Psixologiyada ushbu turdagi kitoblar orqali insonga ijobiy fikrlash, o'zi va xatti-harakatlarini boshqarishni singdirish, shuningdek, muvaffaqiyatga erishish uchun ruhlantirish mumkin. Ammo psixologik tadqiqotlar va kuzatuvlarga asoslanmagan ayrim kitoblar teskari, ya'ni o'quvchida salbiy ruhiy holatga sabab bo'lishi mumkin. Bunday kitoblar tag zamirida uni o'qiydigan kitobxon hayotida, shaxsiyatida, jismoniy holatida o'zgarishga muhtoj qandaydir sifat mavjudligi yotgani sabab, ayrim kitobxonlarda o'z-o'zini tanqid qilish, jamiyatdao'z o'rnini quyi darajada ko'rish, jamiyat va odamlardan begonalashish, passivlik, o'zidan uyalish va aybdorlik kabi qarama-qarshi hislarni uyg'otishi mumkin. (Salerno 2006, 7) Hech qanday ilmiy xulosalarga tayanmagani sabab, insonni shaxsiy rivojlanishga undovchi bunday asarlarni "psevdoilmiy" kitoblar sirasiga kiritisa to'g'ri bo'ladi. Ilm-fanga eng yaqin "ommaviy psixologiya" yo'nalishidagi rivojlantiruvchi

kitoblar bo'lib, ular ham ko'pincha faktlar va topilmalarga emas, balki alohida ekspertlarning tajribalari, taxminlari yoki fikrlariga asoslanadi.

Janrning mashhurligiga qaramay, shaxsiy rivojlanishga oid asarlar ustida ilmiy tadqiqot ishlari soni sanoqli. Mazkur doirada yozilgan tadqiqotlar asosan bunday asarlarning boshqa tilga tarjimasini bilan bog'liq. Shaxsiy rivojga oid asarlar asosan Amerika hayotiga yoxud amerikaliklar dunyoqarashiga, tushuncha va qadriyatlariga moslab yozilgani sabab ularni tarjima qilishda tarjimonlar nafaqat grammatik va semantic o'zgarishlarni, balki pragmatic jihatdan muvaffaqiyatli tarjima uchun pragmatik tarjima strategiyalarini ham qo'llaydilar.

Hozirda O'zbekistonda shaxsiy rivojlanishga oid kitoblarning ruhiy va jismoniy sog'lik, moliyaviy bilimlarni oshirish, rahbarlik qobiliyatini rivojlantirish, omma oldida nutq so'zlash, atrofdagilar bilan munosabatlarni yaxshilash kabi mavzulardagi 50dan ortig'i tarjima qilingan. O'zbekistonda ham shaxsiy rivojlanish janridagi adabiyotlarning ko'plab tarjima qilinishi - o'quvchilar ommasi tomonidan iliq kutib olingani sababli. Lekin bunday kitoblar tarjimasida ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlanmoqda. Xususan, Jen Sinseroning *“You Are A Badass: How to Stop Doubting Your Greatness and Start Living an Awesome Life”* nomli kitobi nomi kitobning rus tilidagi *“НИ СЫ. Будь уверен в своих силах и не позволяй сомнениям мешать тебе двигаться вперед”* nomidan tarjima qilinib, *“Nisi. O'zni shakllantirish”* nomi bilan tarjima qilingan. Holbuki *“Nisi”* so'zi o'zbek kitobxonini tafakkurida hech qanday assotsiatsiyaga ega emas, balki tushunmovchilik uyg'otishi mumkin. Asar nomlari funksiyasidan kelib chiqsak, ular kitobxonga kitob haqida umumiy ma'lumot berishi kerak, bu holda esa ma'lumotdan ko'ra o'quvchini o'ylantirib qo'yishi mumkin. Bundan tashqari asar nomlarida ingliz tilidagi original nomni saqlash strategiyasi qo'llangan holatlar ham mavjud. Masalan, *“Girl Code: Unlocking the Secrets to Success, Sanity, and Happiness for the Female Entrepreneur”* kitobining o'zbek tilidagi nomi *“Girl code: shaxsiy hayotda, do'stlik va biznesda muvaffaqiyat kodini qanday ochish mumkin”*. Bunda asar nomining birinchi qismi o'zbek tarjimasida ham

aynan keltirilgan. Shuningdek, Jeyson Fraydning “Rework” kitobi “Rework: Prinsiplarsiz biznes” tarzida, Daniel Pinkning “Drive. *The Surprising Truth About What Motivates Us*” asari esa “**Drive: Bizni rag’batlantiruvchi kuchlar haqida g’aroyib haqiqatlar**” sarlavhasi bilan nashr etilgan. Sarlavhalarda asliyat tiliga oid so’zlarning qo’llanilishi tarjima strategiyasidan ko’ra kitobxonlar diqqatini tortishga qaratilgan marketing strategiyasi deyish mumkin.

Umuman olganda, tarjimada asliyat tilidan so’zlarni o’z shaklida qoldirish hodisasi tarjima jarayonida va tarjima amaliyotida necha yillardan buyon qo’llanib kelayotgan usullardan biri. Tarjima davr talabi bilan til va tarjima normalaridan chiqmagan holda bu kabi strategiyalarni qo’llashi maqsadga muvofiq.

#### Adabiyotlar:

1. Dolby, S. K. (2005). *Self-Help books : Why Americans keep reading them*. Baltimore: University of Illinois Press.
2. *English Oxford Living Dictionaries* (w.d.) Accessed September 7, 2016, <https://en.oxforddictionaries.com/definition/egalitarian>
3. Salerno, S. (2005). *SHAM. How the Self-Help Movement Made America Helpless*. New York: Three Rivers Press.
4. Файзијева, А. А. ВЫРАЖЕНИЕ МЕСТО И ВРЕМЕНИ В СЕРИИ РОМАНОВ «ГАРРИ ПОТТЕР».
5. Косимова Нафиса К вопросу о прагматической целостности художественного текста // *European journal of literature and linguistics*. 2016. №3.
6. Файзијева, А. А. ВКЛАД ДЖ. К. РОУЛИНГ В РАЗВИТИЕ ЮНОШЕСКО-ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ АНГЛИИ.
7. Usmonova, Z. H., & Fayziyeva, A. A. (2019). LEXICAL AND GRAMMATICAL PECULIARITIES OF COMPLEX TERMS IN ISAAC ASIMOV’S WORKS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(5), 257-262.

8. Файзиева, А. А. (2018). Use of lexical stylistic devices in Peter Abrahams' novel "Path of Thunder". *Молодой ученый*, (13), 326-329.
9. Fayzieva, A. A. (2017). Features of descriptive composition in the english language. *Міжнародний науковий журнал Інтернаука*, (1 (1)), 125-127.

CONTENTS

---

**Атабоев Ахаджон Джумақўзиевич**

Ўзбек тилидаги эргаштирувчи боғловчиларнинг инглиз тилига таржимаси (pp. 4-8)

---

**Ne'matullayev Abdunosir**

Zamonaviy hikoyalarda tarixiy mavzuning yoritilishi (pp. 9-11)

---

**Talipova Gulnoza Davron qizi**

Umumta'lim muassasalarida axborot xavfsizligini o'qitish (pp. 12-14)

---

**Матниязова Азиза Бахтиёровна**

Особенности развития мелкой моторики у детей дошкольного возраста (pp. 15-19)

---

**Sindarov Feruz Xaldarovich**

Fransuzcha frazeologik birliklarda inson ichki kechinmalarining ifodalanishi (pp. 20-24)

---

**Шадиева М.С., Абдужабарова З.М.**

Гастродуоденальная патология у детей (pp. 25-28)

---

**Пулатова М.И., Хамраева З.Х.**

Геометрический смысл коэффициентов фурье и экстримальные свойства функции  $Z^k$  (pp. 29-30)

---

**Яркулова З.Р.**

Экиш муддатлари ва азотли ўғит меъёрларининг кузги арпа уруғларининг дала унувчанлигига таъсири (pp. 31-32)

---

**Nafasov Mirzomurod Muxamadovich**

Mobil ilovalardan ta'lim jarayonida foydalanish (pp. 33-35)

---

**Amanbayeva Dilnoza Saparbayevna**

Informatika fanini o'rganishda ijtimoiy media marketing (SMM) platformalaridan oqilona foydalanish (pp. 36-39)

---

**Ravshanov Umidjon Xalil o'g'li, Abdirimov Asadbek Erkin o'g'li**

Temir-betonning qarshlik nazariyasi va konstruksiyasi yaqinda ma'lumot (pp. 40-43)

---

**Babajanova Fotima Farmanovna**

O'qituvchi shaxsi va uning pedagogik qobiliyatlari (pp. 44-47)

---

**Maxmudova Xurshida Irgashevna, Unarova Hafiza Abdumannonovna,**

**Mamatqulova Bo'ston Aminovna**

“Boburnoma”da bioxilma-xillik va uning ekologik tarbiyadagi roli (pp. 48-51)

---

**Nazarova Ozoda Tashnazarovna**

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida kimyo darslarini tashkil qilish (pp. 52-54)

---

**Dostova Yulduzxon Ostanaqulovna**

Ta'lim sharoitida ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlari (pp. 55-58)

---

**Eshchanov Yashnarbek Bahodir o'g'li**

Fizika darslarida integratsiya xususiyatlaridan foydalanib darslarni tashkil etish (pp. 59-62)

---

**Fayziyeva Aziza Anvarovna**

Shaxsiy rivojlanishga oid asarlar va ularning tarjimasi xususida (pp. 63-67)

---

**Inoyatxon Arzimatova, Havasxon Arabxonova**

Cultural improvement factor to increase the efficiency of reforms (pp. 68-71)

---



---

**Imomova Umida Iskandarovna, Jarkunova Manzura Bekboyevna, Tilavova Firuza Xayrullayevna**

O'quvchilar tarbiyasida inshoning ahamiyati (pp. 72-75)

---

**Inomov Rayimjon Mirsaidovich, Ashurov G'ulom Malikovich**

O'lchovning metodik sifat talablari (pp. 76-78)

---

**Jumaniyozova Shahnoza Zeripboyevna**

Fizika fanini o'qitishda multimedialarning o'rni (pp. 79-81)

---

**Jumaniyozova Shoira Po'latovna**

Oilaviy zo'ravonlikni oldini olishda psixologik metodikalarning ahamiyati (pp. 82-85)

---

**Mamatqulova Bo'ston Aminovna, Maxmudova Xurshida Irgashevna, Ochilov Begzod Salimovich**

Baliqlarni xalq xo'jaligidagi ahamiyati (pp. 86-88)

---

**Otamuratova Mavluda Jumanazarovna**

Matematika rivojlanishining asosiy davrlari (pp. 89-91)

---

**Qarriyeva Ma'mura Boltabayevna**

Kimyo fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (pp. 92-95)

---

**Rahmanova Aliya Valerevna, Aydarbekova Asiya Igilikovna**

The ways of improving vocabulary (pp. 96-99)

---

**Sadullayeva Nafosat Otabekovna**

Matematika fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish (pp. 100-103)

---

**Temirova Shaxnoza Raxmatovna**

Ona tilidan ma'lumot mazmunini moddiylashtirish darajalari (pp. 104-107)

---

**Tojibayeva Muslima Qahramon qizi**

The ways of teaching speaking (pp. 108-110)

---

**Turaboyeva Sitara Zokir qizi**

Hayvon nomlari bilan kelgan frazeologik birliklarning semantik tahlili (pp. 111-114)

---

**Муҳиддинова Дилноза**

Янги ижтимоий психологик қонуниятларга таяниш тенденциялари (pp. 115-118)

---

**Xayrillo Xikmatullayevish Rejapov, Baxodirov Diyorbek**

«Big data» va uning iqtisodiyotdagi o'rni (pp. 119-124)

---

**Равшанова Гулчера Махаматовна**

Таълим жараёнларини ислоҳ қилишда миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлиги (pp. 125-129)

---

**Умарова Ирода Бакировна**

Инсоний муносабатлар психологияси (pp. 130-133)

---

**Урдабаева Гулнора Мамбеталиевна**

Психологиянинг замонавий методлари ва уларни амалиётга тадбиқ этиш (pp. 134-137)

---

**Хамракулова Камола**

Оилада зўравонликни келиб чиқиш сабаблари, оқибатлари ва олдини олиш (pp. 138-141)

---

**Менглиева Сунбула Савранбековна**

Изучение иностранных языков при помощи разных методов (pp. 142-145)

---

---

**Yusubova Sharqiyaxon San'at qizi**

Xorazm viloyati agroturizm sohasini rivojlanish xususiyatlari (pp. 146-151)

---

**Murodulla Islomov Umarovich**

Magnitoelektrik tizimli asboblari (pp. 152-154)

---

**Ochilova Hilola Habibjon qizi**

Teaching English to young children (pp. 155-158)

---

**Худойкулова Зарифа Умматкуловна**

Психология ва унинг моддий асослари (pp. 159-162)

---

**Ахметова Севара Авазхоновна**

Шахнинг ўзи ҳақидаги образи (pp. 163-165)

---

**Эшанкулова Иродахон Авазхановна**

Шахс иқтидори ва қобилиятлар диагностикаси (pp. 166-169)

---

**Faxriddinov Yoqubjon**

Tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda pedagogik diagnostika va korreksiyaning o'rni (pp. 170-174)

---

**Ташматова Гулзода Нематуллаевна**

Чет эл психологиясида шахс назариялари (pp. 175-178)

---

**Omon Suvanov**

O'zbek xalq pedagogikasining ijtimoiy g'oyalari (pp. 179-182)

---

**Sirojov Talant Tolibovich**

Technogenic waste of the mining and metallurgical industry (pp. 183-185)

---

**Azamat Eralov**

O'zbekistonning janubiy viloyatlarida turizmning rivojlanishida xalq o'yinlari va milliy sport turlarining tutgan o'rni (pp. 186-188)

---

**Yarashova Shahrizoda**

Juft va takror so'zlar tadqiqi va ma'no ifodasi (ravish so'zlar misolida) (pp. 189-193)

---

**Усманов Рахимхужа Абдугани угли**

Анализ к вопросу о зимней содержание автомобильных дорог (pp. 194-198)

---

**Авезова Гулойим Саттаровна, Худойбердиев Сайидо**

Тошкент шаҳрида содир этилган йўл транспорт ҳодислари ва уларнинг таҳлили (pp. 199-201)

---

**Соатов Санжар Сарварович**

Ўзбекистонда ташқи савдони тартибга солишда билвосита солиқларни такомиллаштириш истиқболлари (pp. 202-208)

---

**Shavkat Mavlonov**

Affiksatsiya usulida yasalgan so'zlarning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ifodasi ("A" harfi misolida) (pp. 209-213)

---

**Turg'unboyeva Madinaxon Erkinboy qizi**

O'zbekistonda "Solfedjio" fani amaliyotida kuzatilayotgan muammolar (pp. 214-218)

---

**Хушназарова Махзуна Гуламджановна**

Тарихий ва маданий туризмни ривожланиш тамойиллари ва хусусиятлари (pp. 219-222)

---